

**e**

```
>>> age = 15
>>> print("Ahmadning yoshi:")
>>> print(age)
```

**f**

```
>>> age = 15
>>> grad_year = 2019
>>> print("Ahmadning yoshi:")
>>> print(age)
>>> print("O'qishni tamomlagan yili:")
>>> print(grad_year)
```

## 30-DARS. PYTHONDA MA'LUMOT TURLARI

Ma'lumki, axborotlar matnli, raqamli, ovozli, grafik va boshqa shakllarda uzatilishi mumkin. Bunday axborotlarni dasturlash tillarida qayta ishlash uchun, ularni turlarga ajratish lozim. Dasturlarda foydalaniladigan ma'lumotlar turlari dasturning maqsadiga bog'liq bo'ladi: oddiy kalkulyator sonlardan foydalanadi, elektron pochta manzillarini tekshirishga mo'ljallangan dastur esa matnlar bilan ish ko'radi. Sonlar natural, butun va haqiqiy sonlarga ajratiladi. Matnli axborotlar esa belgilar yoki satrli ma'lumotlardan iborat bo'lishi mumkin.

1. Ma'lumotlar turi nima?
2. Ma'lumotlarning qanday turlarini bilasiz?
3. Ma'lumotlar turini o'zgartirish mumkinmi?



BUNI BILASIZMI?

Ma'lumotlar turi – bu o'zgaruvchi yoki doimiy qiymatlardagi ma'lumotlar shakli.

Ma'lumotlar turi kompyuter xotirasida yetarlicha joyni zaxiraga olib qo'yish uchun kerak bo'ladi.

### Tayanch tushunchalar

**Ma'lumotlar turi** – kompyuter

xotirasidagi yacheykada

saqlanadigan ma'lumotlar shakli.



Odatda, dasturlash tillarida ma'lumotlar turi o'zgaruvchi yoki doimiy bilan birga e'lon qilinadi. Python dinamik turlarga ajratuvchi dasturlash tili hisoblanadi. Shu sababli, Pythonda o'zgaruvchining turi u foydalanayotgan qiymat bo'yicha belgilanadi, lekin ma'lumot turini boshqa turga o'zgartirish uchun tur ko'rsatilishi shart.

Ma'lumotlar turi	Ma'lumotlar turi tavsifi	Misol
<code>int()</code>	<b>Butun sonlar</b> , masalan, o'quvchilar sonini ifodalash uchun.	<code>&gt;&gt;&gt; yoshi = 15</code>
<code>float()</code>	<b>Haqiqiy sonlar</b> , masalan, pul miqdorini ifodalash uchun.	<code>&gt;&gt;&gt; narxi = 20.45</code>

<code>str()</code>	Satrli, masalan, so'z yoki gaplarni ifodalash uchun.	<code>&gt;&gt;&gt; name = 'Ahmad'</code>
<code>bool()</code>	Mantiqiy, rost yoki yolg'on ekanligini ifodalash uchun	<code>&gt;&gt;&gt; a= True &gt;&gt;&gt; b= False</code>

Python dasturlash tilida ma'lumotlarning boshqa turi ham mavjud, ular bilan keyinroq tanishamiz.

### Ma'lumotlar turini o'zgartirish

O'zgaruvchi tarkibida ixtiyoriy turdag'i ma'lumot saqlanishi mumkin. Ma'lumotlar turini o'zgartirish uchun mos ma'lumotlar turi buyruqlaridan foydalaniladi. **input()** operatori yordamida kiritilgan ma'lumotlar satrli ko'rinishda bo'ladi.

### Eslab qoling!

O'zgaruvchi qabul qilgan qiymat turini **type()** funksiyasi yordamida aniqlash mumkin.

```
>>> name = 'Ahmad'  
>>> type(name)  
<class 'str'>
```

Sintaksisi:

**input(kiruvchi ma'lumot)**

**input** – operator (yoki funksiya);

**kiruvchi ma'lumot** – bu o'zgaruvchi yoki vergul bilan ajratilgan o'zgaruvchilar ketma-ketligi.

Butun son turidagi ma'lumotlarni kiritish uchun **int(input())** ko'rinishida ishlatalish lozim. Yoki kiritilgan ma'lumot turini **int()** funksiyasi yordamida o'zgartirish kerak.

Misol:

```
>>> age=input('Enter your age:')

Enter your age: 15

>>> print(age + 1)

Traceback (most recent call last):
  File <<pyshell#27>>,
line 1, in <module>
    print(age+1)
TypeError: can only concatenate
str (not <int>) to str
```

```
>>> age=input('Enter your age:')

Enter your age: 15

>>> print(int(age) + 1)
```

16

Ushbu misolda yoshi o'zgaruvchisiga 1 sonini qo'shishda xatolik kelib chiqdi, sababi foydalanuvchi tomonidan kiritilgan 15 ni kompyuter satrli o'zgaruvchi deb qabul qildi va satrga sonni qo'sha olmadi.

Ikkinchi holatda esa foydalanuvchi tomonidan kiritilgan 15 satrli o'zgaruvchini int() buyrug'i yordamida butun songa aylantrib oldi va 15 soniga 1 ni qo'shib natijani chiqardi.



1. O'zgaruvchi qiymati qaysi turdag'i ma'lumotlarni qabul qiladi?
2. Identifikator nima?
3. O'zgaruvchi va doimiyning bir-biridan farqli jihatni nimada?
4. O'zgaruvchilarni nomlashda qanday belgilardan foydalanish mumkin emas?